

## KIMYO

61.  $N_2 + 3H_2 \leftrightarrow 2NH_3$  reaksiyaning  $40^\circ C$  da tezligi  $1,6 \text{ mol}/(l \cdot s)$  ga teng. Reaktor hajmi 2 marta oshirilib, harorat  $30^\circ C$  gacha tushirilganda tezlik qiymati ( $\text{mol}/(l \cdot s)$ ) qanchaga teng bo'ladi? ( $\gamma=2$ )  
A) 0,8 B) 0,05 C) 1,6 D) 0,1
62. Azot atmosferasida ikki grafit elektrodi orasida elektr yoyi razryadi o'tkazilganda, azotning  $1/4$  qismi sarflanib 34 g bitta oddiy va bitta murakkab modda aralashmasi olindi. Azotning dastlabki miqdorini (g) aniqlang.  
A) 22,4 B) 14 C) 28 D) 16,8
63. Mis (II)-xlorid va oltin (III)-xlorid eritmalari bo'lgan elektrolizorlar ketma-ket tok manbaiga ulangan. Birinchi idish katodida 38,4 g mis ajralgan bo'lsa, ikkinchi idish katodida necha gramm oltin ajralgan?  
A) 59,1 B) 78,8 C) 177,3 D) 118,2
64. To'yingan uch atomli spirt molekulasida kislorodning massa ulushi  $12/23$  ga teng bo'lsa, uning nisbiy molekular massasini hisoblang.  
A) 134 B) 106 C) 120 D) 92
65. Quyidagi qatorda bog' qutbliligi qanday o'zgaradi?  
a) ortadi; b) kamayadi.  
 $CCL_4 \xrightarrow{1} CF_4 \xrightarrow{2} CCl_4 \xrightarrow{3} CBr_4$   
A) 1-a; 2-b; 3-a B) 1-b; 2-a; 3-b  
C) 1-a; 2-a; 3-b D) 1-b; 2-b; 3-a
66. Qaysi jarayon natijasida eritmaning  $pH$  qiymati ortadi?  
1) suvda  $NO_2$  va  $O_2$  eritilganda; 2) sirka kislota eritmasiga magniy oksid qo'shish;  
3) ohakli suv suyultirilganda; 4) sirka kislota eritmasiga bo'r qo'shish.  
A) 1, 4 B) 1, 3 C) 2, 4 D) 2, 3
67. 12 g  $NaOH$  dan foydalanib qanday massali (g) 6 molyalli eritma tayyorlash mumkin? (Molyallik – 1 kg erituvchiga mos keluvchi erigan modda miqdori)  
A) 54 B) 62 C) 50 D) 40
68. Butanol-2 va  $R-O-CH_3$  o'zaro izomer bo'lsa, radikal tarkibidagi elektronlar sonini hisoblang.  
A) 25 B) 23 C) 24 D) 26
69.  $H_2Se$  sulfat kislota ishtirokida kaliy bixromat bilan oksidlandi. 49 g oksidlovchi reaksiyaga kirishganligi ma'lum bo'lsa, hosil bo'lgan  $Se$  miqdorini (mol) hisoblang.  
A) 0,3 B) 0,5 C) 0,2 D) 0,4
70. Kumush va misdan iborat 1,2 mol aralashma teng ikki qismga ajratildi. Bir qismi suyultirilgan nitrat kislota eritmasida eritilganda 0,3 mol  $NO$  ajraldi. Qolgan qismi konsentrlangan nitrat kislota eritilganda necha mol  $NO_2$  ajraladi?  
A) 0,9 B) 0,7 C) 0,4 D) 0,6
71. Ma'lum miqdordagi rux sulfatga 56%li  $KOH$  eritmasi qo'shilganda 19,8 g cho'kma tushdi va 0,1 mol  $K_2[Zn(OH)_4]$  hosil bo'ldi. Sarflangan ishqor eritmasining massasini (g) hisoblang.  
A) 140 B) 100 C) 80 D) 120
72.  $2SO_2(g) + O_2(g) \leftrightarrow 2SO_3(g)$  jarayon borishi uchun geliyga nisbatan zichligi 12 ga teng bo'lgan gazlar aralashmasidan 8 mol ishlatildi. Sistemada muvozanat yuzaga kelganida ( $K_M=1$ ), umumiy molekular soni  $7N_A$  donani tashkil etsa, idish hajmini ( $l$ ) aniqlang.  
A) 2 B) 1 C) 4 D) 3
73. Sikloalkan molekulasida 4 ta birlamchi va 1 ta to'rtlamchi uglerod atomlari mavjud bo'lsa, uchlamchi uglerod atomlari sonini aniqlang.  
A) 1 B) 3 C) 0 D) 2
74.  $N_2O_5 \rightarrow NO_2$  ushbu jarayonda azotning valentligi (1) va oksidlanish darajasi (2) qanday o'zgaradi?  
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi  
A) 1-b; 2-b B) 1-c; 2-c C) 1-c; 2-b  
D) 1-b; 2-c
75. 75 g to'yingan bir asosli karbon kislota molekulasida  $10 \cdot N_A$  dona atom mavjud bo'lsa, 2 mol kislota tarkibidagi atomlar sonini hisoblang.  
A)  $22 \cdot N_A$  B)  $10 \cdot N_A$  C)  $28 \cdot N_A$  D)  $16 \cdot N_A$
76. Germetik yopiq idishda ikkita stakan joylashtirildi. Birinchisida mo'l miqdorda fosfor (V)-oksid, ikkinchisida 60 g 10% li  $LiOH$  eritmasi mavjud. Ma'lum vaqtdan so'ng ikkinchi idishda ishqor konsentratsiyasi (%) 2 marta o'zgardi. Birinchi idish massasi necha grammga o'zgargan? (havodagi suv bug'lari inobatga olinmasin)  
A) 30 B) 15 C) 20 D) 24
77.  $^{105}Db$  elementi tarkibida magnit kvant soni +3 bo'lgan nechta elektron mavjud?  
A) 2 B) 28 C) 4 D) 14

78. Metan va uglerod (IV) oksidining hajmiy ulushi teng bo'lgan metan, kislorod va uglerod (IV) oksiddan iborat aralashmaning vodorodga nisbatan zichligi 15,6 ga teng. 22,4 l (n.sh.) shunday aralashma ta'sirlashuvi natijasida necha gramm suv hosil bo'ladi?

A) 7,2 B) 5,4 C) 3,6 D) 10,8

79. Quyidagi jadvaldan foydalanib *A* va *B* ni aniqlang.

Ion	$N(e^-)$	Elementning qaysi oilaga mansubligi
$X^+$	10	<i>A</i>
$Y^{2+}$	18	<i>B</i>

A) *A* - *s*-element; *B* - *p*-element

B) *A* - *s*-element; *B* - *s*-element

C) *A* - *p*-element; *B* - *p*-element

D) *A* - *p*-element; *B* - *s*-element

80. Etanol va to'yingan bir asosli aminokislotalardan hosil bo'lgan 36,25 g murakkab efrin gidrolizi uchun 4,5 g suv sarflangan bo'lsa, aminokislota molar massasini (g/mol) hisoblang.

A) 89 B) 103 C) 131 D) 117


81. 200 K da suyuqlanadigan va 300 K da qaynaydigan modda  $0^\circ C$  va  $273^\circ C$  da qanday agregat holatda bo'ladi?

A) suyuq; suyuq B) gaz; gaz C) suyuq; gaz  
D) gaz; suyuq

82. Kaliy gidroksid eritmasiga *HBr* qo'shildi. Olingan eritmada bromid anionining konsentratsiyasi 0,02 mol/l,  $pH=2$  bo'lsa,  $m(K^+)$  ni toping. (Eritma hajmi 200 ml,  $\alpha=1$ )

A) 39 mg B) 156 mg C) 117 mg  
D) 78 mg

83. Quyidagi o'zgarishlar asosida kremniy tutgan *X* va *Y* moddalarning molar massasi (g/mol) yig'indisini toping.



A) 244 B) 212 C) 238 D) 270

84. Metan va xlor ( $M_{o'rt}=46$  g/mol)dan iborat 1,1 mol aralashmaga quyosh nuri tushirilganda hosil bo'lgan molar massasi kichik organik modda massasini (g) hisoblang. ( $\eta=100\%$ ) (Reaksiya bosqichma-bosqich boradi deb hisoblang.)

A) 30,3 B) 10,1 C) 40,4 D) 20,2

85. Ekvimolar nisbatda olingan alken va vodorod sulfiddan iborat aralashma to'liq yondirildi. Yonish mahsulotlari bariy gidroksid eritmasiga yuttirilganda umumiy massasi 161,6 g bo'lgan cho'kmalar olindi. Cho'kmalar kaliy permanganatning kislotali ( $HNO_3$ ) eritmasida eritilganda 46,6 g bariy sulfat hosil bo'ldi. Alkenni aniqlang.

A) *penten* B) *eten* C) *buten* D) *propen*

86. 540 g butadiyen-1,3 dan 0,02 mol butadiyen kauchuk olinsa o'rtacha polimerlanish darajasi qanday bo'lgan?

A) 500 B) 300 C) 600 D) 400

87. Geliyga nisbatan zichligi 10 ga teng bo'lgan ochiq zanjirli to'yingan uglevodorodlar aralashmasini to'liq gidrogenlash uchun aralashma hajmidan ikki marta ko'p vodorod talab etiladi. 40 g shunday aralashmani yoqish uchun qancha hajm (litrlar, n.sh.) kislorod kerak?

A) 89,6 B) 33,6 C) 67,2 D) 44,8

88. 32,2 g etanol ( $H^+$  ishtirokida) to'liq degidratlandi. Hosil bo'lgan aralashma kaliy permanganat ta'sirida neytral muhitda oksidlanganda 34,8 g cho'kma olingan bo'lsa, degidratlanishdan olingan oddiy efir massasini (g) hisoblang.

A) 3,7 B) 14,8 C) 11,1 D) 7,4

89. 8%li tuz eritmasi bug'lanishi natijasida to'yingan eritma ( $S=25$ ) hosil bo'ldi. Bunda 1 g tuz cho'kmaga tushdi va eritma massasi 5 marta kamaydi. Bug'langan suv massasini (g) aniqlang.

A) 19 B) 20 C) 15 D) 14

90. Massasi 15 g bo'lgan alkandagi uglerodning massasi 12 g bo'lsa, alkan molekulasidagi qutbli kovalent bog'lar sonini aniqlang.

A) 6 B) 12 C) 8 D) 10

2019-2020 o'quv yili uchun o'tkazilgan qabul test sinovlarida kimyo fanidan qo'llanilgan test topshiriqlari (bitta variant misolida)

Test topshirig'i raqami	Test sinovlarida tekshiriladigan fan mazmunining tarkibi	Kodifikator	Qiyinlik darajasi	Test topshirig'ining yechilishi va tahlili	Vaqt (minut)	Manba
61	Umumiy kimyo. Kimyoviy reaksiya tezligi va unga ta'sir etuvchi omillar.	1.4	2	$N_2 + 3H_2 = 2NH_3$ Hajm ortishi hisobiga 2 <sup>4</sup> marta, temperatura kamayishi hisobiga 2 marta ( $v_{t_2} = 2^{\frac{40-30}{10}}$ ), jami 32 marta kamayadi. Oxirgi tezlik esa, $\frac{1,6 \text{ mol/(l}\cdot\text{s)}}{32} = 0,05 \text{ mol/(l}\cdot\text{s)}$ ga teng bo'ladi.	1,5-2	1. Kimyo, 8-sinf, I.Asqarov va b., "Yangiyo'1 poligraf servis", 2014, 151-bet 2. Umumiy kimyo, 11-sinf, S.Masharipov va b., "G'ofir G'ulom", 2018, 100-bet
62	Anorganik kimyo. Metallmaslar. IV-A guruh metallmaslari.	2.2	2	$2C + N_2 = (CN)_2$ Azotning umumiy miqdori 4 mol bo'lsa, 1 moli sarflangan va 3 moli ortib qolgan. 1 mol $(CN)_2 = 52 \text{ g}$ 3 mol $N_2 = 84 \text{ g}$ Umumiy 136 g _____ 4 mol (boshlang'ich $N_2$ ) 34 g _____ x = 1 mol ( $m(N_2)=28 \text{ g}$ )	1,5-2	Kimyo, 9-sinf, I.Asqarov va b., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2014, 32-bet
63	Umumiy kimyo. Elektroliz jarayoni. Faradey qonunlari.	1.8	3	a) Ajralgan misning massasidan eritmadan o'tgan tok miqdori(Faradey)ni topib olamiz: $38,4/32=1,2F$ b) 1,2F ni Au ning ekvivalent massasiga ko'paytirsak ajralgan Au ning massasi kelib chiqadi: $1,2 \cdot \frac{197}{3} = 78,8 \text{ g}$	1,5-2	1. Umumiy kimyo, 11-sinf, S.Masharipov va b., "G'ofir G'ulom", 2018, 144-bet 2. Kimyo, 9-sinf, I.Asqarov va b., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2014, 62-bet
64	Organik kimyo. Spirtlar.	3.3	1	Uch atomli spirtlarning umumiy formulasi $C_nH_{2n+2}O_3$ . Masala shartidan ma'lumki, 12 g (kislrod) _____ 23 g (spirt) 48 g _____ m = 92 g Demak, $Mr(\text{spirt}) = 92$	1	1. Organik kimyo, 10-sinf, A.Mutalibov va b., "G'ofir G'ulom", 2017, 86-bet 2. Kimyo, 9-sinf, I.Asqarov va b.,

2019-2020 o'quv yili uchun o'tkazilgan qabul test sinovlarida kimyo fanidan qo'llanilgan test topshiriqlari (bitta variant misolida)

						“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2014, 154-bet
65	Umumiy kimyo. Kimyoviy bog‘lanish.	1.3	1	Binar birikmalarda elementlarning NEM qiymati farqiga qarab bog‘ning qutbliligini aniqlash mumkin: $\text{CCl}_4 \rightarrow \text{CF}_4 \rightarrow \text{Cl}_4 \rightarrow \text{CBr}_4$ Ushbu qatorda bog' qutbliligi: ortadi, kamayadi, ortadi.	0,5-1	1. Kimyo, 8-sinf, I.Asqarov va b., “Yangiyo‘l poligraf servis”, 2014, 80-bet 2. Umumiy kimyo, 11-sinf, S.Masharipov va b., “G‘ofir G‘ulom”, 2018, 24-bet
66	Umumiy kimyo. Ion almashinish reaksiyalari. Suvning ion ko‘paytmasi, pH.	1.6	2	1-jarayonda $\text{H}^+$ ionlari konsentratsiyasi ortadi. Demak, pH qiymati kamaydi. 2-jarayonda $\text{H}^+$ ionlari konsentratsiyasi kamayadi. Demak, pH qiymati ortadi. 3-jarayonda $\text{OH}^-$ ionlari konsentratsiyasi kamayadi. Demak, pOH qiymati ortadi, pH qiymati kamayadi. 4- jarayonda $\text{H}^+$ ionlari konsentratsiyasi kamayadi. Demak, pH qiymati ortadi.	1	1. Kimyo, AL va KHK, S.Masharipov, I.Tirkashev., “O‘qituvchi” NMIU, 2014, 64-bet 2. Umumiy kimyo, 11-sinf, S.Masharipov va b., “G‘ofir G‘ulom”, 2018, 60-bet
67	Umumiy kimyo. Eritmalar. Eritmalarning turli kattaliklarda ifodalanishi. Foiz, molyar, normal, moyal va titr konsentratsiya.	1.5	2	6 molyalli eritma tayyorlash uchun 1000 g suvda 6 mol ( $6 \cdot 40 = 240$ g) NaOH eritish kerak. Eritma massasi 1240 g bo'ladi. $240 \text{ g (NaOH)} \quad \frac{\quad}{\quad} \quad 1240 \text{ g (eritma)}$ $12 \text{ g} \quad \frac{\quad}{\quad} \quad x = 62 \text{ g}$	2	1. Kimyo, AL va KHK, S.Masharipov, I.Tirkashev., “O‘qituvchi” NMIU, 2014, 55-bet 2. Umumiy kimyo, 11-sinf, S.Masharipov va b., “G‘ofir G‘ulom”, 2018, 73-bet
68	Organik kimyo. Oddiy va murakkab efirlar.	3.4	1	Butanol-2 ( $\text{CH}_3\text{CH}(\text{OH})\text{CH}_2\text{CH}_3$ ) Demak oddiy efir ( $\text{R-O-CH}_3$ ) tarkibidagi radikal $\text{C}_3\text{H}_7 \cdot$ Radikal tarkibida $3 \cdot 6 + 7 = 25$ ta elektron mavjud.	0,5-1	Organik kimyo, 10-sinf, A.Mutalibov va b., “G‘ofir G‘ulom”, 2017, 108-bet

2019-2020 o'quv yili uchun o'tkazilgan qabul test sinovlarida kimyo fanidan qo'llanilgan test topshiriqlari (bitta variant misolida)

69	Umumiy kimyo. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari. Ularning turlari.	1.7	2	<p>Reaksiyani yozib, tenglashtiramiz:  <math>3\text{H}_2\text{Se} + \text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7 + 4\text{H}_2\text{SO}_4 = \text{K}_2\text{SO}_4 + \text{Cr}_2(\text{SO}_4)_3 + 3\text{Se} + 7\text{H}_2\text{O}</math>                      294 g (oksidlovchi) _____ 3 mol (Se)                      49 g _____ x = 0,5 mol</p>	2-3	<p>1. Kimyo, 8-sinf, I.Asqarov va b., "Yangiyo'1 poligraf servis", 2014, 93-bet                      2. Umumiy kimyo, 11-sinf, S.Masharipov va b., "G'ofir G'ulom", 2018, 127-bet</p>
70	Anorganik kimyo. Metallar.	2.3	3	<p><math>3\text{Ag} + 4\text{HNO}_3 = 3\text{AgNO}_3 + \text{NO} + 2\text{H}_2\text{O}</math>  <math>3\text{Cu} + 8\text{HNO}_3 = 3\text{Cu}(\text{NO}_3)_2 + 2\text{NO} + 4\text{H}_2\text{O}</math>                      Birinchi qism aralashmadagi kumush miqdorini 3x, mis miqdorini 3y bilan belgilab, quyidagi tenglamani tuzamiz:  <math>3x + 3y = 0,6</math>  <math>x + 2y = 0,3</math>  <math>3y=0,3; 3x=0,3</math>. Demak ikkinchi qism aralashmada ham xuddi shunday miqdorda Ag va Cu mavjud. Reaksiya tengalamasidan foydalanib, ajralgan <math>\text{NO}_2</math> miqdorini topamiz:  <math>0,3 \qquad \qquad \qquad x_1=0,3</math>  <math>\text{Ag} + 2\text{HNO}_3 = \text{AgNO}_3 + \text{NO}_2 + \text{H}_2\text{O}</math>  <math>0,3 \qquad \qquad \qquad x_2=0,6</math>  <math>\text{Cu} + 4\text{HNO}_3 = \text{Cu}(\text{NO}_3)_2 + 2\text{NO}_2 + 2\text{H}_2\text{O}</math>                      Umumiy <math>0,3+0,6=0,9</math> mol</p>	4	<p>1. Kimyo, 8-sinf, I.Asqarov va b., "Yangiyo'1 poligraf servis", 2014, 171-bet                      2. Kimyo, 9-sinf, I.Asqarov va b., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2014, 98-bet                      3. Anorganik kimyo, AL va KHK, I.A.Toshev va b., "O'qituvchi" NMIU, 2016, 261-bet                      4. Kimyo, 7-sinf, I.Asqarov va b., "Sharq", 2017, 128-bet</p>
71	Anorganik kimyo. Metallar.	2.3	2	<p><math>x=0,4 \qquad \qquad \qquad 19,8 \text{ g}</math>  <math>\text{ZnSO}_4 + 2\text{KOH} = \text{K}_2\text{SO}_4 + \text{Zn}(\text{OH})_2</math>  <math>2 \text{ mol} \qquad \qquad \qquad 99 \text{ g}</math>  <math>x=0,4 \qquad \qquad \qquad 0,1 \text{ mol}</math>  <math>\text{ZnSO}_4 + 4\text{KOH} = \text{K}_2\text{SO}_4 + \text{K}_2[\text{Zn}(\text{OH})_4]</math>  <math>4 \text{ mol} \qquad \qquad \qquad 1 \text{ mol}</math>  <math>n(\text{KOH}) = 0,4+0,4 = 0,8</math>  <math>m(\text{eritma}) = (0,8 \cdot 56)/0,56 = 80 \text{ g}</math></p>	1,5-2	<p>Kimyo, 9-sinf, I.Asqarov va b., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2014, 101-bet</p>

2019-2020 o'quv yili uchun o'tkazilgan qabul test sinovlarida kimyo fanidan qo'llanilgan test topshiriqlari (bitta variant misolida)

72	Umumiy kimyo. Kimyoviy muvozanat va uning siljishi. Le-Shatelye prinsipi. Kimyoviy reaksiyalarda energetik hodisalar.	1.4	3	$M_{or}=12 \cdot 4=48$ $\begin{array}{ccc} 64 & & 16 \\ & \searrow & / \\ & 48 & \\ & / & \searrow \\ 32 & & 16 \end{array}$ Demak, gazlar teng mol miqdorda. Necha mol kislorod sarflanganini hisoblaymiz: $8-7=1 \text{ mol}$  $x=2 \quad 1 \quad x=2$ $2SO_2 + O_2 = 2SO_3$  Mol bo'yicha muvozanat konstantasi qiymatini hisoblaymiz: $K_M = 2^2 / (2^2 \cdot 3) = 1/3$ . So'ng idish hajmini topish uchun konsentratsiya bo'yicha $K_M$ qiymatini mol bo'yicha $K_M$ qiymatiga bo'lamiz: $V_{idish} = \frac{1}{1/3} = 3 \text{ litr.}$ Izoh: shu masaladagi idishning hajmini x deb, tenglama orqali ishlasak ham bo'ladi.	3	1. Kimyo, 8-sinf, I.Asqarov va b., "Yangiyo'l poligraf servis", 2014, 154-bet 2. Umumiy kimyo, 11-sinf, S.Masharipov va b., "G'ofir G'ulom", 2018, 112-bet
73	Organik kimyo. Sikloalkanlar. Ularning olinishi va xossalari.	3.1	2	4 ta birlamchi va 1 ta to'rtlamchi uglerod saqlagan xohlagan sikloalkanda 2 ta uchlamchi uglerod bo'ladi (2-chi uglerodlarning nechtaligi ahamiyati yo'q). Masalan, 1,1,2,3-tetrametilsiklopropan.	1	Organik kimyo, 10-sinf, A.Mutalibov va b., "G'ofir G'ulom", 2017, 27,37-betlar
74	Umumiy kimyo. Oksidlanish darajasi.	1.7	1	$N_2O_5 \rightarrow$ azotning valentligi IV, oksidlanish darajasi +5 $NO_2 \rightarrow$ azotning valentligi IV, oksidlanish darajasi +4 Demak, valentligi o'zgarmaydi, oksidlanish darajasi kamayadi	0,5	1. Kimyo, 8-sinf, I.Asqarov va b., "Yangiyo'l poligraf servis", 2014, 87-bet 2. Umumiy kimyo, 11-sinf, S.Masharipov va b., "G'ofir G'ulom", 2018, 127-bet
75	Organik kimyo. Karbon kislotalar.	3.3	2	<del>75</del> (7,5) g _____ <del>40</del> (1) mol atom $C_nH_{2n}O_2$ $14n+32$ _____ $3n+2$  $14n+32 = 22,5n+15$ $8,5n=17$ $n=2$ . Demak, $8 \cdot 2=16$ mol atom	1-1,5	1. Organik kimyo, 10-sinf, A.Mutalibov va b., "G'ofir G'ulom", 2017, 102-bet 2. Kimyo, 9-sinf, I.Asqarov va b., "O'zbekiston milliy

2019-2020 o'quv yili uchun o'tkazilgan qabul test sinovlarida kimyo fanidan qo'llanilgan test topshiriqlari (bitta variant misolida)

						ensiklopediyasi”, 2014, 157-bet
76	Anorganik kimyo. Metallmaslar. V-A guruh metallmaslari.	2.2	2	Fosfor (V) oksid suvni shimib oluvchi modda hisoblandi. Demak, birinchi idishdagi konsentratsiyasi 2 marta ortgan (suv chiqib ketishi hisobiga). Natijada ikkinchi idish massasi $60/2=30$ g ga ortadi.	1,5	Kimyo, 8-sinf, I.Asqarov va b., “Yangiyo‘l poligraf servis”, 2014, 180-bet
77	Umumiy kimyo. Elektron konfiguratsiya. Pauli prinsipi, Klechkovski, Gund qoidalari. Kvant sonlari.	1.2	2	Magnit kvant soni +3 bo'lgan elektronlar f-orbitalda joylashadi. $_{105}\text{Db}$ elementida 4f- va 5f-orbitalar elektron bilan to'la to'lgan. Demak, $_{105}\text{Db}$ elementida magnit kvant soni +3 bo'lgan 4 ta elektron mavjud.	1	1. Umumiy kimyo, 11-sinf, S.Masharipov va b., “G‘ofir G‘ulom”, 2018, 5-bet 2. Kimyo, AL va KHK, S.Masharipov, I.Tirkashev., “O‘qituvchi” NMIU, 2014, 29-bet
78	Umumiy kimyo. Kimyoning asosiy qonunlari. Moddaning saqlanish qonuni, tarkibning doimiylik qonuni, gaz qonunlari, Avogadro qonuni, ekvivalentlar qonuni. Modda miqdori va Avogadro doimiysi. Moddadagi elementlarning massa ulushi.	1.1	2	$\begin{array}{ccc} x & x & y \\ \text{CH}_4 & \text{CO}_2 & \text{O}_2 \\ 2x+y=1 \\ 60x+32y=31,2 \text{ (15,6}\cdot\text{2)} \\ x=0,2; y=0,6 \\ 0,2 \text{ mol} & 0,6 \text{ mol} & m=7,2 \text{ g} \\ \text{CH}_4 + 2\text{O}_2 = \text{CO}_2 + 2\text{H}_2\text{O} \\ 1 \text{ mol} & 2 \text{ mol} & 36 \text{ g} \end{array}$	1,5-2	1. Umumiy kimyo, 11-sinf, S.Masharipov va b., “G‘ofir G‘ulom”, 2018, 34-bet 2. Kimyo, 7-sinf, I.Asqarov va b., "Sharq", 2017, 54-bet
79	Umumiy kimyo. Davriy qonun va davriy sistema. Atom tuzilishi (Kimyoviy elementlarning dastlabki toifalanishi, atom tarkibi, elektron konfiguratsiya).	1.2	1	$X^+ 10 \text{ ta elektron} \rightarrow X 11 \text{ ta elektron (s-element)}$ $Y^{2+} 18 \text{ ta elektron} \rightarrow Y 20 \text{ ta elektron (s-element)}$	0,5	Kimyo, 8-sinf, I.Asqarov va b., “Yangiyo‘l poligraf servis”, 2014, 55-bet
80	Organik kimyo. Azotli organik birikmalar. Nitrobirikmalar. Aminlar, aminokislotalar.	3.5	2	<p>a) Suvning massasidan foydalanib murakkab efirning(M.E.) molar massasini hisoblaymiz:</p> $\begin{array}{ccc} 36,25 \text{ g} & 4,5 \text{ g} & \\ \text{C}_2\text{H}_5\text{OH} + \text{H}_2\text{N-R-COOH} = \text{M.E.} + \text{H}_2\text{O} \\ 46 & x & M=145 \quad 18 \text{ g} \end{array}$ <p>b) Moddalar massasining saqlanish qonuniga ko'ra aminokislotalaning molar massasini topamiz:</p>	1-1,5	1. Organik kimyo , 10-sinf, A.Mutalibov va b., “G‘ofir G‘ulom” , 2017, 111, 139-betlar 2. Kimyo, 9-sinf, I.Asqarov va b.,







2019-2020 o'quv yili uchun o'tkazilgan qabul test sinovlarida kimyo fanidan qo'llanilgan test topshiriqlari (bitta variant misolida)

						“O‘qituvchi” NMIU, 2014, 207-bet
89	Umumiy kimyo. Eritmalar. Eritmalarning turli kattaliklarda ifodalanishi. Foiz, molyar, normal, molyal va titr konsentratsiya.	1.5	3	Dastlabki eritmani 100 g deb belgilab olamiz, erigan modda esa 8 g ni tashkil etadi. Eritma massasi 5 marta kamaysa 20 g ni tashkil etadi.  $\frac{8}{100} \rightarrow \frac{m=4}{20} = \frac{25}{125} = 0,2$ Demak, eritma massasi 80 g ga kamaygan (4 g tuz+ 76 g suv) 4 g (tuz) _____ 76 g (suv) 1 g _____ x= 19 g	1,5-2	1. Kimyo, AL va KHK, S.Masharipov, I.Tirkashev., “O‘qituvchi” NMIU, 2014, 55-bet 2. Umumiy kimyo, 11-sinf, S.Masharipov va b., “G‘ofir G‘ulom”, 2018, 73-bet
90	Umumiy kimyo. Kimyoviy bog‘lanish.	1.3	2	Alkan 15 g. 12 g    3 g C        H 12     1    Demak, brutto formulasi $CH_3 \rightarrow C_2H_6$ Qutbli bog‘lar (C-H) = 6 ta	1-1,5	1. Kimyo, 8-sinf, I.Asqarov va b., “Yangiyo‘l poligraf servis”, 2014, 80-bet 2. Umumiy kimyo, 11-sinf, S.Masharipov va b., “G‘ofir G‘ulom”, 2018, 24-bet